



INDIVIDUAL PHILOSOPHICAL APPROACHES IN THE RESEARCH OF MUSICAL HERITAGE IN DIFFERENT PERIODS

Nasimjon Kholjurayevich Madaminov

Kokand State University

Email: nasinjon1000963@gmail.com

Kokand, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: music, heritage, philosophy, creativity, instrument, national, creativity.

Received: 14.09.25

Accepted: 15.09.25

Published: 16.09.25

Abstract: This article provides information about the specific philosophical views of music in different periods in the study of musical heritage. The article provides information about the thoughts and scientific research of thinkers during the period of the development of musical heritage. Examples of books based on music science by thinkers are given.

MUSIQIY MEROSNI TURLI DAVRLARDA TADQIQ QILISHDA O'ZIGA XOS FALSAFIY QARASHLAR

Nasimjon Xoljurayevich Madaminov

Qo'qon davlat universiteti

nasinjon1000963@gmail.com

Qo'qon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: musiqa, meros, falsafa, ijod, cholg'u, milliy, ijod.

Annotatsiya: Ushbu maqolada musiqa merosini tadqiq qilishda turli davrlarda musiqaning o'ziga xos falsafiy qarashlari haqida ma'lumotlar berilgan. Maqolada musiqa merosining takomillashuvi davridagi mutafakkir olimlarning fikrlari hamda ilmiy izlanishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Mutafakkir olimlarning musiqa ilmiga asoslangan kitoblaridan misollar keltirilgan.

ОТДЕЛЬНЫЕ ФИЛОСОФСКИЕ ПОДХОДЫ В ИЗУЧЕНИИ МУЗЫКАЛЬНОГО НАСЛЕДИЯ В РАЗНЫЕ ПЕРИОДЫ

Насимжон Хольжураевич Мадаминов

Кокандский государственный университет

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	музыка, наследие, философия, творчество, инструмент, национальный, творчество.	Аннотация: В статье представлена информация о специфике философских воззрений на музыку в разные периоды изучения музыкального наследия. В статье представлены сведения о размышлениях и научных исследованиях мыслителей в период развития музыкального наследия. Приведены примеры книг мыслителей, основанных на музыкальной науке.
------------------------	--	---

Kirish

Mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli qarorida musiqiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar belgilangan. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ularidan kamida bittasida kuy ijro etish ko'nikmalarini shakllantirish choralari ko'zda tutilgan. Bunday amaliyot, nafaqat o'quvchilarning estetik tarbiyasini kuchaytiradi, balki ularni milliy musiqiy merosga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

Musiqa darslari haftasiga bir soat o'tkazilishi bilan birga, unga qo'shimcha ravishda amaliy mashg'ulotlar, ya'ni fakultativ va to'garaklar shaklida tashkil etilishi nazarda tutilgan. Bu esa o'quvchilarning ijrochilik qobiliyatini oshirish va musiqaga nisbatan barqaror qiziqish uyg'otishga xizmat qiladi.

O'zbekiston davlat filarmoniyasi va uning hududiy bo'limlari tomonidan lektoriy konsertlarini o'tkazish tizimi yo'lga qo'yiladi. Bu konsertlar orqali yoshlarning musiqiy savodxonligi va madaniy didini rivojlantirish ko'zda tutiladi. Ushbu konsertlarning o'tkazilganligi haqidagi dalolatnomalar asosida, xarajatlar mahalliy byudjet yoki boshqa qonunchilikda taqiqlanmagan manbalar hisobidan qoplanadi.

Shuningdek, qarorda milliy va zamonaviy musiqa janrlarida yangi asarlar yaratish, karaoke versiyalar tayyorlash va ularni xalq orasida ommalashtirish uchun davlat buyurtmalarini yo'lga qo'yish belgilangan. Ayniqsa, internet va ijtimoiy tarmoqlarda eng ko'p tomosha qilingan milliy musiqiy kliplar, qo'shiqlar va kompozitsiyalar mualliflariga rag'bat sifatida pul mukofotlari berilishi nazarda tutilgan. Bunday mexanizm nafaqat iste'dodli san'atkorlarni rag'batlantiradi, balki musiqiy kontent sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

O'tmishda O'zbekistonda mavjud zardushtiy va budda ibodatxonalarida musiqa diniy g'oyalarni targ'ibot etishda muhim vosita vazifasini bajargan. Kushon davrida qadimgi buddaviylarning musiqa sanhati juda rivojlangan bo'lsa-da, musiqaning ilmiy asoslarini yaratish

aynan Uyg'onish davriga to'g'ri keladi. Uyg'onish davrining IX-XII asrlarida falsafa, mantiq, tibbiyot, tilshunoslik va boshqa fanlar juda taraqqiy etdi. Bu fanlarning nazariy, amaliy asoslari ishlab chiqilib, yirik qomusiy asarlar yaratildi. Bu davr - Forobiy, Ibn-Sino, al-Xorazmiy, ar-Roziy, Beruniy kabi daholarni dunyoga tanitdi. Ammo XIII asrda mo'g'ullar istilosining boshlanishi bilan bu mahdaniy-mahrifiy yuksalish tushkunlikka yuz tutib, boshqa sharq xalqlari qatorida Markaziy Osiyo xalqlari ham yangi zulmga mahkum bo'ldilar va bu bosqinchilik harakati mustaqil Amir Temur davlatining tashkil topishiga qadar davom etdi. Amir Temurning o'zi o'qimishli, savodxon va mahrifatparvar inson bo'lib, mamlakat taraqqiyotida, xalqning madaniy-mahnaviy kamolotida ilm-fan va mahrifatning ahamiyatini juda qadrlagan. Mazkur davrda al-Husayniy Xo'ja Yusuf Andijoniy, al-Omuliy, Abdulqodir Marog'iy, Behzod, Ulug'bek, Bobur, Sharafuddin Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Mavlono Binoiy kabi buyuk ijodkorlar yetishib chiqdilar va ular o'tmishdoshlarining tahlilotlaridan zamonaviy ehtiyojlarni o'ziga xos yangicha sifatlarda qondirish yo'lida foydalandilar.

Qadimiy musiqa risolalarida yozilishiga ko'ra, musiqaning eng ko'p tarqalgan janrlari bo'lmish kuy, ashula va raqslar uzoq o'tmishdan beri O'zbekiston hududida rivojlangan. O'rta va Yaqin sharq xalqlari musiqiy – estetik tafakkurining muhim yo'nalishlaridan biri – musiqa to'g'risidagi axloqiy – estetik mehyorlar va tasavvurlarning vujudga kelishi, hamda rivojlanishi Imom al-Buxoriy nomi bilan bog'liq.

Imom al-Buxoriy yashagan davrdan keyin o'tgan ming yildan ziyod vaqt davomidan hozirgi kunlarga qadar ham musiqaning ijtimoiy hayotda zarurligi to'g'risida qizg'in bahslarda buyuk muhaddis to'plagan hadislar eng nufuzli huquqiy hujjat bo'lib xizmat qilib keldi. Imom al-Buxoriy tasnif etgan hadislar, ilk o'rta asrlarga oid barcha muqaddas matnlar singari, majoziy, ko'p mahnoli va ramziydir. Ayni shu keyingi ikki omil musiqa tabiati to'g'risida falsafiy fikrlash uchun sabab va rag'bat bo'lib, uning ichki mazmunini tadqiq etish uchun turtki bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili

Musiqa merosini o'rganish jarayonida Sharq va G'arb mutafakkirlarining ilmiy qarashlari alohida o'rin tutadi. Xususan, musulmon Sharqi uyg'onish davrida musiqiy–nazariy fikrning rivojlanishi Forobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi qomusiy olimlar nomi bilan chambarchas bog'liqdir. Abu Nasr Forobiyning “Kitob al-musiqa al-Kabir” asarida musiqa nazariyasining ilmiy asoslari mukammal tizimga solingan bo'lib, unda ritm, ohang, musiqiy asboblari va ularning inson ruhiyatiga ta'siri mufassal tahlil etilgan. Forobiy musiqani matematikaning bir bo'limi sifatida ko'rib, uni insonning mukammallikka yetishida zarur vosita deb hisoblagan.

Uning ilmiy an'alarini Ibn Sino davom ettirdi. Allomaning “Jome' ilm al-musiqiy”, “Kitob ash-Shifo”, “Donishnoma” kabi asarlarida musiqa inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi, hatto davolashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan fan sifatida talqin qilingan. Ibn Sino musiqaning

estetik hamda ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil etib, uning inson ma'naviy qiyofasi shakllanishidagi rolini yuksak baholagan.

Musika merosining ijtimoiy-ma'naviy ta'siri keyingi davrlarda Alisher Navoiy ijodida ham o'z aksini topdi. Navoiy "Mahbub ul-qulub" va "Majolis un-nafois" asarlarida musiqani inson ruhiyatiga bevosita ta'sir etuvchi san'at turi sifatida ko'rsatib, uni axloqiy va didaktik jihatdan talqin etdi.

XVI–XVII asrlarda Abdulqodir Marog'iy, Jomiy, Husayniy, Darvishali Changiy kabi musiqashunoslar maqom san'atining nazariy va amaliy asoslarini yaratib, musika ilmining keyingi rivojiga salmoqli hissa qo'shdilar. XX asrda esa Abdurauf Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" asarida milliy musika merosining o'ziga xos xususiyatlarini, uning jamiyat ma'naviy hayotidagi rolini ilmiy asoslab berdi.

G'arb falsafasida ham musiqaning mohiyati borasida turli qarashlar shakllangan. Masalan, I. Kant musiqani faqat his-tuyg'ularni uyg'otuvchi vosita sifatida baholagan bo'lsa, G. Hegel uni go'zallikni tovush orqali ifodalovchi san'at sifatida ko'rgan. A. Shopengauer musiqani insonni ruhiy jihatdan yengillashtiruvchi vosita deb bilgan. XIX asr musiqashunosi Eduard Ganslik esa "Musiqiy go'zallik to'g'risida" asarida musiqaning mustaqil mazmuni yo'q, balki u harakatdagi shakllardan iborat, degan g'oyani ilgari surgan.

Shu tariqa, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, musika merosi haqidagi qarashlar tarixiy jarayonlarda turlicha talqin etilgan. Sharq mutafakkirlari musiqani ma'naviy-axloqiy kamolot manbai sifatida yuksak qadrlagan bo'lsalar, G'arb faylasuflari uning falsafiy va estetik mohiyatini turli nuqtayi nazardan izohlaganlar. Bu holat musiqaning jamiyat madaniy-ma'naviy hayotida nechog'lik keng qamrovli va universal ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Natija va muhokama

Mazkur asar ikkita katta qismdan iborat bo'lib, uchta kitobda bayon qilingan. Birinchi kitobda musiqiy bilimning usul-qoidalari va unga bog'liq jihatlar, ikkinchi kitobda esa o'z davrining zamonaviy musika asboblari haqida fikr yuritiladi, uchinchi kitobda turli xil tovushlarning ohanglari haqida mahlumot beriladi. Forobiy ham antik davr faylasuflari kabi musika ilmini matematika tarkibida o'rganib, mazkur ilmning insonning mukammal bilimlarni egallashda tayyorgarlik vazifasini o'tovchi boshlang'ich bosqichda juda muhim o'ringa ega ekanligini ta'kidlaydi.

Forobiyning ilmiy izlanishlari anhana tusini oldi va uning izdoshi, alloma Ibn Sino ijodida bevosita davom ettirildi. Inson mahnaviy qiyofasining shakllanishi va tarbiyalanishida, kerak bo'lsa davolanishida qo'llanuvchi muhim vositalaridan biri musiqadir, deb hisobladi. Allomaning bizning mavzuimizga bevosita aloqador qimmatli mulohazalari uning "Jomeh ilm al musiqiy" asarida mujassam bo'lgandir. Uningcha, musika mahnaviy kamolikka yetaklovchi vositalardan

biridir, inson mahnaviy yetukligi esa – jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi qudratli kuch bo'lib, alloma tahlilotida musiqaning inson mahnaviy qiyofasining shakllanishi bilan bog'lab tahlil etilishi – fan predmetining ijtimoiy - falsafiy mohiyatini ham yoritib beradi.

Ibn Sino musiqa bobida Forobiyning ilmiy yo'nalishini davom ettirgan yirik nazariyotchidir. Uning "Musiqa ilmiga oid to'plam" asari "Kitob ash-SHifo"ning bir qismi bo'lib, "an-Najot", "Donishnoma"larda musiqa haqida kichik bo'limlar mavjud. SHuningdek, "Tib qonunlari", "Risolai ishq" kabi asarlarida ham musiqaga tegishli bo'lgan fikrlari bayon etilgan. Forobiy bilan ibn Sino musiqaning nazariy jihatdan tahlil qilishgan bo'lsa, Mahmud ash-SHeroziy va Abdulqodir Marog'iy, Jomiy va Zaynullobiddin Husayniy, Najmiddin Kavkabiyy Buxoriy, Darvishali CHangiy kabi musiqashunos olimlar o'zlarining asarlarida anhanaviy musiqa sanhatiga asos soldilar. SHulardan biri milliy musiqa sanhatining Maqom janridir.

Markaziy Osiyo allomalari orasida musiqiy-didaktik meros qoldirgan mutafakkir alloma, buyuk o'zbek adibi, sanhat shaydosi Alisher Navoiydir. Navoiyning musiqiy qarashlari asosan uning «Mahbub ul-qulub», «Majolis ul-nafois» asarlarida mujassam bo'lgandir. Jumladan, «Mahbub ul-qulub» nasriy risolasida alloma musiqaning ilmiyligini ehtirol etgan holda uni ko'proq mahnaviy ozuqa beruvchi sanhat turi sifatida didaktik tarzda talqin qildi.

Navoiy musiqaning tahsirchanligi va shu orqali tarbiyaviyligi – sanhatkorlarning aql-idroki va ijrochilik salohiyati bilan bog'liq deb hisobladi. Musiqaning badiiy mazmunini moddiylikda tinglovchiga uzatib beruvchi vositalar sifatida musiqiy sozlarning o'ziga xos tabiatini mahorat bilan tahriflab beradi. SHunday qilib, Markaziy Osiyo mutaffakirlari va olimlarining ilmiy merosida musiqa ilmi jamiyat va uning ahzolari ijtimoiy tafakkurida katta o'zgarishlarni amalga oshiruvchi omil sifatida talqin etildi. Bundan tashqari, agar qomusiy allomalar musiqa ilmini matematika tarkibida o'rgangan bo'lsalar, uyg'onish davrining so'nggi asrlarida musiqa ilmi mustaqil fan sifatida taraqqiy etdi. Uyg'onish davrida musiqa ilmi tarkiban ilmu iyqoh, ilmu tahlif (al-musiqa al-nazariyya) va bastakorlik hamda ijrochilik sanhati (al-musiqa al-amalliyya)ni qamrab olgan bo'lib, bu sohalarning har biri o'ziga xos uslubiy yondashuvda mukammal darajada tadqiq etildi.

O'zbek milliy musiqa madaniyati inson ruhiyatini ifodalovchi chuqur mazmunli, asrdan asrga o'tib kelgan anhanaviy turlarga ega bo'lgan milliy merosdir. Uni o'rganuvchi, to'plovchi, sharhlovchi olimlar qatorida Abdurauf Fitratning faoliyati diqqatga sazovordir. Uning "O'zbek klassik (mumtoz) musiqasi va uning tarixi" kitobida XX asrning 20 – yillarida O'zbekiston musiqa madaniyatida yangi oqimlar paydo bo'layotgani aks etdi.

XVII asrdan boshlab yaratilgan musiqiy asarlarda biror hodisani tasvirlashda o'ziga xos mantiq, dramaturgik elementlar, insonda bir vaqtning o'zida nafaqat shodlik, balki mahyuslik kayfiyatlarni paydo qilishga harakat ko'zga tashlanadi. Musiqa sanhat sifatida ehtirol etilishida

cholg'uning yuqori shakllari - sonata, kontsert, simfoniya kabi turlari tobora rivoj topib, insonlarni hayot mazmuni to'g'risida falsafiy fikrlashga undashi muhim ahamiyat kasb eta boshladi. SHuning uchun ham, o'sha davrlardan to xanuzgacha musiqachi va faylasuflar musiqaning sirli ohanglari qanday qilib murakkab g'oyalar va kontseptsiyalarni ifoda etishiga qodirligi haqida bosh qotiradilar.

Masalan I.Kant uchun musiqa his-tuyg'ularning nozik o'yini bo'lib, kishi kayfiyatiga turli darajada tahsir qiluvchi voqea xolos. SHuning uchun u musiqani sanhat soxalari orasida past o'ringa qo'yadi. V.Gegelg' musiqani go'zallikni his qilishda mahlum bosqich deb biladi. Uning aytishicha haykaltaroshlik mehmorlikning ajralmas qismi bo'lganidek, musiqa ham biron bir tasvirni tovush orqali "chizadi." A. Shopengauer musiqa odamni o'ziga mahliyo qilib tinchlantiradi yoki ko'ngilni ochadi, lekin boshqa sanhatlarda bo'lgani kabi unda g'oya yo'q, deb hisoblaydi. M.Veberning aytishicha, muhabbat insonlarga qanchalik kerak bo'lsa, musiqa ham shunchalik kerak. SHunday qilib, musiqa sirini aniqlash bo'yicha bildirilgan fikrlar xilma-xildir. Turli tarixiy davrlarda musiqaga turlicha baho berilgan. Musiqa matematika fanlaridan biri deb ko'rildi; ruhiy xolatni bildiruvchisi sifatida qaraldi; sanhat sohalari ichida eng quyi pog'ona deb tahkidlandi va hokazo. Oxir oqibat, musiqa inson ruhiy dunyosidagi eng yorqin va salmoqli hodisa sanalib, uning tahsiri sanhatning boshqa soxalaridan birmuncha kuchliroqdir, bu kuchni so'z bilan to'liq tahriflab bo'lmaydi degan fikrga kelindi.

1854 yilda Eduard Ganslikning "Musiqiy go'zallik to'g'risida" nomli risolasi dunyoga keldi. Unda "musiqaning o'zi nima?" degan savol emas, "Musiqqa nimani ifodalaydi?" degan savol o'rta tashlandi. Bu davrda affektlar nazariyasiga zamin tug'ilib, musiqa qanday affektlarni hosil qilishi mumkinligi to'g'risida fikrlar vujudga kela boshladi. Ganslik fikricha musiqaning mustaqil mazmuni yo'q. Musiqaning mazmuni-harakatdagi musiqiy shakllardan iborat. SHu sababli Ganslikni formalizm g'oyasini ilgari suruvchi musiqashunos deya ehtirol qilishadi. CHunki musiqiy asarlarning turi va yo'nalishi shunchalik ko'payib ketganki, ular biror bir predmet yoki hodisani ifoda etmasdan, musiqiy tovushlar yig'indisiga aylanib qolgan. Zamonaviy jarayondagi bahzi musiqalarning "texnologik" shakllari shundayki, ular qadriyatlar, musiqiy ong va ifoda usullarini o'zgacha talqin qiladilar.

XIX asrning o'rtalarigacha musiqaning kelib chiqishi haqidagi qarashlar ko'proq nazariy ko'rinishga ega edi. Faktlarga asoslangan qarashlardan birinchisi Gerbert Spenserning nazariyasi edi. Uning fikricha, musiqiy amaliyotning birlamchi shakli - odamning nag'masi edi. Nag'ma esa tovush chiqarib so'zlash intonatsiya va aktsentlaridan kelib chiqqan. Ovozni balandlatish yoki pasaytirish, so'zlashni tezlatish yoki sekinlatish musiqiy ifodaning asosidir. Bu qarash bir tomonlama qarash edi. Chunki hayvonlar ham har xil holatda turli balandlikdagi tovushlarni chiqarishadi, ammo ulardan farqli ravishda insonning musiqiy ijodi, sodda bo'lishiga qaramay,

onglidir. Bundan tashqari bu qarash musiqaning keyingi rivojini tushuntirib bera olmaydi. Ch.Darvinning qarashlariga kelsak, u musiqani shunday tushuntirgan: musiqa bu bir jinsning ikkinchi jinsni urug'lantirish uchun chaqiruvchi aloqa vositasidir. Bu qarash ham biryoqlama qarash bo'lib, unda ham odam va hayvon orasidagi farq yo'qoladi. Bundan tashqari M.Veber va Kombarg'e qarashlari ham mavjud, ammo musiqaning paydo bo'lishiga doir qarashlarning ichida Vallashekning qarashlariga alohida ehtibor berish mumkin. Uning fikricha, musiqa raqs bilan uzluksiz bog'liqdir va uning asosida ritm yotadi. Ilk musiqada ritmning rolini tug'ri baholaganligi Vallashekning yutug'idir. Bundan tashqari raqslar jamoa xarakteriga ega bo'lib, butun qabila tomonidan ijro etilardi, qabilaning jipslashishiga yordam berar, bu esa ijtimoiy axamiyatga ega edi. Bundan tashqari, ilk bora jamoa bo'lib kuylash shakllangan edi.

Xulosa

Uzoq o'tmishda yaratilgan qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib yashab kelmoqdalar. Ular og'izdan-og'izga o'tganda badiiy-g'oyaviy jihatdan ishlana borib, eshitgan kishilarning esidan chiqmaydigan bo'lib qolganlar. Qo'shiq bo'ladigan shehr musiqiyligi, tahsirchanligi, ommabopligi bilan alohida o'rin tutadi. Mehnat qo'shiq bilan yengillashgan, dahshatlarni qo'shiq bilan yengganlar. Qo'shiq bilan og'ir mushkullar, musibat, kulfatlar oson ko'chgan. Xalq qo'shiqlarining deyarli hammasida optimizm, insonparvarlik pafos bilan kuylanib, qadrlanadi; kasb-hunar, halol mehnatni ulug'lash, unga targ'ib qilish, rostgo'ylik, insonga mehr-muxabbat bilan qarash, do'stlik, vafodorlik kabi olijanob insoniy fazilatlar birinchi o'rinda turadi2.

Har bir yangi avlod moddiy va mahnaviy madaniyat negizini har gal yangitdan yaratmaydi, balki o'tmish avlodlar tomonidan yaratilgan mavjud madaniy boyliklarga tayanadi. Tarixiy vorislik kishilik jamiyati, jumladan, madaniyati taraqqiyotining zaruriy shartidir. Madaniyat boyliklari jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga kelib va mazkur jamiyat hayotini aks ettirib, shu jamiyat bilan birga yo'q bo'lib ketmaydi, balki o'z davrini o'tab, keyingi avlodlar uchun madaniy meros bo'lib qoladi. Ushbu meros yoshlarimiz mahnaviyatini shakllantirishda, ularni har tomonlama komil inson qilib voyaga yetkazishda salmoqli ruhiy va mahnaviy oziq bera oladigan g'oyaviy va hissiy tarbiya vositasi sifatida xizmat qilishi, hamda barcha ijodkorlarimiz uchun ilxom manbai bo'lib qolishiga hech shubxa yo'qdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-fevraldagi PQ-112-sonli qarori, 1-ilova, 2-band.
2. Abu Nasr ibn Muxammad alg'-Farabi. Traktatq o muzqke i poezii. – M.: Nauka, 1993. – 456 s
3. Abu Nasr ibn Muxammad alg'-Farabi. Bolg'shaya kniga o muzqke. Perevod s arab. Daukeevoy S. – M.: Nauka, 2007.– 469 s.

4. Abu Homid G'azzoliy. Kimiyoi saodat. Turkiy. 2 tomlik. –Toshkent: Adolat, 2005. T.2. B. 121-22.
5. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. 20 tomlik. - Toshkent: Fan, 2002. T.10. – 357 b.
6. Ayxodjaeva SH.I. Maqom taronalari (janr xususiyatlari, ijro anhanalari): Avtoref. dis. ... sanhatshunoslik fan. nom. –Toshkent: O'zbekiston davlat konservatoriyasi, 2007. –B.15
7. Alikulov X. Esteticheskie vozzreniya mqsliteley Sredney Azii i Xorasana (XVI-XV vv.) / Pod red. akademika ANUz. M.M.Xayrullaeva. – Toshkent: Fan, 1992. –S.98.
8. Alaviya M. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari. – Toshkent.: «Fan», 1974. –B.221.
9. Asqar F. Musiqa va inson mahnaviyati. Mashul muharrir: M.Hamidova. -Toshkent: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2000. –B. 96
10. Axlidinov R.SH. Sotsialg'no-pedagogicheskie osnovq upravleniya kachestvom obo'ego srednego obrazovaniya. Avtoref.diss... dok.ped.nauk. – Toshkent, 2002. –S.44.
11. Badalov M. Umrboqiylik// Nafosat. № 9-10, 1993. –B. 18-19.
12. Bobomirzaev X. Xalq og'zaki ijodi va uning tahlim tarbiyadagi samarasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1991. –B.173.
13. Gurbanalieva S.F. Muzqkalg'no esteticheskie osobennosti azarbayjanskoy narodnoy muzqki (na materialax liricheskix pesen): Avtoref. dis. ... kand. iskusstvoved. -Tbilisi. 1988. –S.22.
14. Dolimov U. Abdulla Avloniy – yetakchi metodist olim. Milliy uyg'onish. – Toshkent: Universitet, 1993. –B.40-50.
15. Djami A. Traktat o muzqke. Pod redaktsiey M. Radjabova. – Dushanbe: Irfon, 1994. – 195 s.
16. Jabborov I. O'zbek xalq etnografiyasi / Mashul muhar.: Q.SH.SHoniyozov. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. –B. 320.